


Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020-yil yanvar-dekabr)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 7928,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 101,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 53,7 % ni tashkil etdi.



B–Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**–Ishlab chiqaradigan sanoat **D**–Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash, **E**–Suv bilan taʼminlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilitatsiya qilish.


Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI* % da



Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiyatizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish 66,5 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 1,6 % ga pasayishi kuzatildi.


Shuningdek, togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 83,4 % ga, elektr, gaz, bugʻ bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 13,5 % ga hamda o'sishi kuzatildi.

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2020-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 58,7 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi yil boshidan I-II-III-IV-choraklar, % da




Ishlab chiqaradigan sanoat




2020-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4258,2 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 53,7 % ini tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining hajmi 276,8 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 6,5 %), o'rta-yuqori texnologiyali 153,9 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 3,6 %), o'rta-quyi texnologiyali 894,2 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 21,0 %), quyi texnologiyali 2933,9 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 68,9 %) ni tashkil etdi.


Yuqori texnologiyali




O'rta-yuqori texnologiyali



O'rta-quyi texnologiyali



quyi texnologiyali



**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi
mahsulotlarning o'sish sur'ati**

2020-yilning yanvar-dekabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 1465,2 ming l. 100% spirti (2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 17,2 % ga o'sgan), 845,6 tonna bint (44,9 %), 38,7 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (17,1 %) ishlab chiqarilib yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	33,1	38,7	5,6
Aroq, ming l. 100% spirt	1 250,3	1 465,2	214,9
Sellyuloza, ming tonna 90%	1 308,6	1 784,2	475,6
Paxta tolasi, mingtonna	24,0	26,8	2,8
Yigirilgan ip, tonna	2 712	2 371	-341
Paxta chigiti, ming tonna	38,0	40,0	3,0
Paxta tiviti (lint), ming tonna	2,2	2,3	0,1
Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa, ming tonna	23,5	28,7	5,2
Etilen polimer qoplar, ming tonna	15,5	15,8	0,3
Issiqlik elektr markazlari (IEM) ishlab chiqargan elektr energiyasi, mln.kVt/s	13 591,1	13 340,1	-251,0
Bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi), ming Gkal	212,5	130,7	-81,8

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish (yirik korxonalar bo'yicha)



Yumshoq bug'doy
va spelta uni

38,7
ming tonna



Aroq

1465,2
ming l. 100% spirt




Sellyuloza

1784,1
ming tonna 90%



Paxta chigiti

40,3
ming tonna



Paxta tiviti (lint)

2,3
ming tonna



Yigirilgan ip

2371,4
tonna



Paxta tolasi

26,7
ming tonna



Etilen polimerli qoplar

15,8
ming tonna



Soapstok

121,9
tonna



Issiqlik elektr
markazlari (IEM)
ishlab chiqargan
elektr energiyasi

13340,1
mln.kVt/s



Bug‘ va issiq suv
(issiqlik energiyasi)

130,7
ming Gkal




Yirik shoxli
qoramollar uchun
tayyor ozuqa

28,7
ming tonna

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

2020-yilning yanvar-dekabr oylarida




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3135,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (46,9 % ini) tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-dekabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 2,2 % ga oshganligi kuzatildi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi


yil boshidan I-II-III-IV choraklar, % da



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	13591,1	13340,1	-251,0
Issiqlik energiyasi, ming gkal	212,5	130,7	-81,8


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 35,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini) tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi


yil boshidan I-II-III-choraklar, % da



2020-yilning yanvar-dekabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 3,5 % ga o'sishi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 2243,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 15,4 % ga pasayishi kuzatildi, jami sanoatdagi ulushi esa 33,6 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari 1,4 % ni (2019-yil yanvar-dekabr oylarida 1,6 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to'g'ri kelib 32,1 % ni, shuningdek, Guliston shahri 17,0 % ni, Yangiyer shahri 9,5 % ni hamda Sayxunobod tumanida 8,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishning o'sish sur'atida viloyat (84,6 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Sayxunobod tumanida (106,1 %), Sardoba tumanida (105,0 %), Xovos tumanida (103,9 %), Yangiyer shahrida (101,6 %), Guliston shahrida (95,7 %) va Mirzaobod tumanida (95,3 %) qayd etildi.


**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020-yilning yanvar-dekabr oylarida)**

	Mrd.so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, % da
Sirdaryo viloyati	2243,1	100,0	84,6
Guliston sh.	380,8	17,0	95,7
Shirin sh.	26,5	1,2	75,0
Yangiyer sh.	212,7	9,5	101,6
<i>tumanlar:</i>			
Boyovut	156,4	7,0	44,4
Guliston	59,5	2,7	75,9
Mirzaobod	169,7	7,6	95,3
Oqoltin	65,6	2,9	78,9
Sardoba	94,4	4,2	105,0
Sayxunobod	180,0	8,0	106,4
Sirdaryo	721,1	32,1	81,3
Xovos	176,4	7,8	103,9

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1192,0 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 15,0 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumani (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 47,2%), Sardoba tumani (48,1 %), Sayxunobod tumani (39,7 %), Guliston shahri (29,2 %), Mirzaobod tumani (9,5 %) hamda Yangiyer (9,7 %) shaharlarida kuzatildi.

**Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari
ishlab chiqarish hajmi va indeksi**

	2020-yil yanvar-dekabr mlrd. soʻm	Fizik hajm indeksi, % da
Sirdaryo viloyati	6680,9	101,2
Guliston sh.	709,2	81,0
Shirin sh.	2934,0	99,1
Yangiyer sh.	484,0	103,7
tumanlar:		
Boyovut	313,9	109,2
Guliston	93,9	74,3
Mirzaobod	285,6	133,3
Oqoltin	137,2	77,8
Sardoba	111,5	43,3
Sayxunobod	286,3	118,6
Sirdaryo	1148,2	85,1
Xovos	176,9	101,2

Viloyatda ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, % da



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulushi Shirin shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 43,9 %), Sirdaryo tumani (17,2 %), Guliston shahri (10,6 %), hamda Yangiyer shahri (7,2 %), Boyovut tumani (4,7 %), Mirzaobod tumani (4,3 %), va Sayxunobod (4,3 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Xovos tumani (2,7 %), Oqoltin tumani (2,1 %), Sardoba tumani (1,7 %) hamda Guliston tumaniga (1,4 %), to‘g‘ri kelmoqda.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol mollari ishlab chiqarish (2020-yil yanvar-dekabr oylari, ming so'mda)

	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish	Iste'mol mollari
Sirdaryo viloyati	7845,2	2634,0
Guliston sh.	7793,4	4184,6
Shirin sh.	156064,3	1409,0
Yangiyer sh.	11127,4	4889,3
tumanlar:	2410,6	1201,7
Boyovut	1286,0	814,6
Guliston	3865,1	2296,5
Mirzaobod	2623,9	1254,0
Oqoltin	1682,7	1423,6
Sardoba	3685,3	2316,3
Sayxunobod	8907,9	5594,0
Sirdaryo	1843,2	1838,4
Xovos	7793,4	4184,6

**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari
ishlab chiqarish va iste'mol mollarining o'sishi**
(2019-yil yanvar-dekabr oyiga nisbatan, % da)


Sanoat ishlab chiqarish		Xalq iste'mol mollari
100,2	Guliston sh.	91,1
102,3	Shirin sh.	79,6
107,6	Yangiyer sh.	100,2
100,8	Boyovut t.	44,4
85,7	Giliston t.	81,9
105,8	Mirzaobod t.	94,3
83,8	Oqoltin t.	83,4
80,1	Sardoba t.	101,9
103,0	Sayhunobod t.	104,7
83,7	Sirdaryo t.	88,6
100,5	Xovos t.	102,2

Viloyatdagi hududiy sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi va ulushi (2020-yil yanvar-dekabr oylarida)

	Mahsulot hajmi (mlrd. so'm)	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Sirdaryo viloyati	2067,4	30,9
Guliston sh.	283,7	4,2
Shirin sh.	26,1	0,4
Yangiyer sh.	250,2	3,7
tumanlar:		
Boyovut	285,2	4,3
Guliston	60,0	0,9
Mirzaobod	156,4	2,3
Oqoltin	48,5	0,7
Sardoba	77,4	1,2
Sayxunobod	156,6	2,3
Sirdaryo	639,6	9,6
Xovos	83,5	1,3

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2526,4 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 37,8 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Sardoba tumani (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 85,1%), Guliston shahri (80,3 %), Xovos (73,9 %), Mirzaobod (68,8 %), Guliston tumani (64,8 %), Sirdaryo tumani (64,6 %), hamda Yangiyer shahar (59,4 %), tumanlarida kuzatildi.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Sayxunobod tumani (58,8 %), Boyovut tumani (55,4 %), Oqoltin tumani (53,9 %) hamda Shirin shahrida (1,0 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 2097 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 547 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 26,1 %) Guliston shahriga, 340 tasi (16,2 %) Sirdaryo tumaniga, 195 tasi (9,3 %) Yangiyer shahriga to'g'ri kelmoqda.



2020-yil yanvar-dekabr oylarida viloyatda 528 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning 48,1 % Oqoltin tumani, Xovos tumani, Sayxunobod tumani va Guliston shahriga to'g'ri keladi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o`shish sur`atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o`z ta`sirini ko`rsatadi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 45 ta loyiha bo`yicha 276,5 mlrd. so`mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo`lib, jami sanoat mahsulotlari umumiy hajmining 3,5 % ni tashkil etdi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 3437,1 ming AQSH dollari miqdorida eksport qilindi, jami viloyat eksport hajmining 2,2 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, 2019-yilning yanvar-dekabrga nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlarni eksport hajmining o`shishi kuzatildi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining asosiy ko`rsatkichlari

	2019-yil yanvar-dekabr	2020-yil yanvar-dekabr
Loyihalar soni, birlik	7	45
Korxonalar soni, birlik	6	21
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd.so`m	258,8	276,5
Eksport qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, ming AQSH dollar	2 922,3	3 437,1
Yaratilgan yangi ish o`rinlari, birlik	339	566

Sanoat statistikasi bo`limi

Aloqa telefoni: (067) 236-86-23